

66  
S96

Sultonova L.S., Qalandarova F.A.

**MAHALLIY DAVLAT  
HOKIMIYATI VA FUQAROLARNING  
O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH  
INSTITUTLARINI  
DEMOKRATLASHUVI**



**Buxoro -2021**

4

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'BLIM VAZIRLIGI  
BUXORO MUXANDISLIK TEXNOLOGIYA INSTITUTI

Sultonova L.S., Qalandarova F.A.

**"MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VA  
FUQAROLARNING O'ZINI-O'ZI BOSHQARISH  
INSTITUTLARINI DEMOKRATLASHUVI"**

(«Fuqarolik jamiyati» fanidan o'quv qo'llanma)

O'quv qo'llanmada "Fuqarolik jamiyat" fanidan mazkur mavzuni o'tishning ta'lif texnologiyalari, ularning mazmuni, ma'ruza matni, mavzuga oid savollar, talabalarning bilimini mustahkamlash va sinashga doir interfaol usullar, test topshiriqlari o'z aksini topgan.

O'quv qo'llanma oliy ta'lif muassasalari o'qituvchi va talabalari uchun mo'ljallangan.

### **Tuzuvchilar**

**L.S. Sultonova - Buxoro muxandislik texnologiya instituti**

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi

**F.A. Qalandarova - Buxoro muxandislik texnologiya instituti**

"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi assistenti

### **Taqrizchilar:**

**Bobojonova F. - Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.n.**

**Mirzaqulov B.T. - Buxoro muhandislik texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, t.f.n.**

### **Muharrir:**

**Bafoev F.M.- Buxoro muhandislik texnologiya instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti, s.f.n.**



O'quv qo'llanma Buxoro muxandislik instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining 2021 yil, № 7 sonli, 2 mart 2021 yil majlis yig'ilishi bayonnomasi, BMTI uslubiy kengashi tomonidan tasdiklanib chop etishga Tavsiya etilgan. № 5 sonli majlis bayoni, 5 mart 2021 yil

## KIRISH

O'zbekiston mustaqillika erishgan daslabki kunlardanoq, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy-demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatni qurishni o'z oldiga maqsad qilib oldi. Bu borada esa, ko'plab islohotlar amalga oshirilib, ushbu amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolarning farovonligi va manfaatlari xizmat qilishi lozimligi asosiy maqsad qilib olindi. Jumladan, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning qonuniy asoslari ishlab chiqilib, eng avvalo, o'zining qadimiy tarixiga ega bo'lgan mahalla institutining nufuzi va rolini oshirishga e'tibor qaratildi. Binobarin, fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatni qurilishining eng asosiy shartidir. Shu nuqtai-nazardan mamlakatimizda mustaqillik yillarida birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida o'zini o'zi boshqarish organlarini isloh etish, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va rolini oshirishga katta ahamiyat berib kelindi.

Shuni ta'kidlash joizki, Prezident Shavkat Mirziyoev 2017 yil 3 fevralb kuni "Mahalla institutini yanada takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida"gi Farmonni imzoladi. Farmonda mahalla institutini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida jamiyatda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va hamjihatlik muhitini shakllantirishda, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda rivojlantirishda mahallalarining ahamiyati va nufuzini yanada oshirish belgilandi. Shuningdek, yoshlarni ma'naviy boy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularning bandligini ta'minlash, yosh avlodni masfuraviy tahdidlardan himoya qilish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini, keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat va nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash qayd etildi. Bundan tashqari, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda, huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishda, fuqarolarda qonunga hurmat hissini kuchaytirishda mahallalarining bevosita ishtirokini kengaytirish ko'rsatib o'tildi. Farmon bilan kengashlar faoliyatini yanada takomillashtirish hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash borasida juda kuplab tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadigan Kompleks chora-tadbirlar dasturi ham tasdiqlandi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasining 1-

ustuvor yo'nalishi "Davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari" deb nomlanib, Jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha belgilab berilgan vazifalar ichida xalk bilan samarali muloqot mexanizmlarini joriy qilish; jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllarini rivojlantirish; fuqarolik jamiyatni institutlarini rivojlantirish, ularning ijtimoiy va siyosiy faoliygini oshirish, mahalla institutining jamiyat boshqaruvidagi o'mi va faoliyatining samaradorligini oshirish kabilarga e'tibor qaratilishi mavzuning dolzarbligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbli shundaki:

birinchidan, bugungi kunda O'zbekistonda mahalliy davlat hokimiyyati, o'zini o'zi boshqarish organlari sohasida amalga oshirilgan islohotlar jarayonini tadqiq etish, xolisona baho berish bilan bog'liq;

ikkinchidan, mamlakatimizda o'zini o'zi boshqarish organlarining tarixiy ildizlari, rivojlanishi, fuqarolik jamiyatni qurilishida tutgan o'mi va rolini keng o'rghanish, tadqiq qilish, bu sohada amalga oshirilgan ishlarni yanada jadallashtirish bilan bog'liq;

uchinchidan, fuqarolik jamiyatini shakllantirishda o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rnini va rolini yanada chuqurroq o'rghanishga qaratilgan xulosa, taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishga bo'lган ehtiyoj bilan belgilanadi. Shuni ta'kidlash joizki, "Mahalliy davlat hokimiyyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish institutlarini demokratlashtirish" mavzusi "O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti" fani tarkibida o'rganilib, talaba yoshlarda fuqarolik jamiyatni institutlari xususidagi bilimlarini kengaytirish va mustahkamlashda o'rni kattadir. Shuningdek, hozirgi kun talabi asosida talaba yoshlarda bilim berish, ularning mustaqil dunyoqarashini yuksaltirish, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashda har bir pedagog o'qituvchi o'zining kasbiy mahoratini yuksaltirgan holda, ma'ruza va amaliy mashg'ulot darslarini samarali tashkil qilishi maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda, mazkur mavzu doirasidagi adabiyotlar tahlilidan talab darajasida xabardor bo'lishi lozim. Ma'lumki, hozirgi davr ijtimoiy fanlarining dolzarb muammolari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar fuqarolik jamiyatni va uning asosiy instituti bo'lgan o'zini o'zi boshqarish organlari mavzusini chetlab o'tishi mumkin emas. Jamiyat hayoti uchun o'ta ahamiyatli bo'lgan mazkur institutning mazmun-mohiyatini tadqiq etish huquqshunos, siyosatshunos, sotsiolog, faylasuf olimlarning diqqat markazida bo'lgan. Dunyoning qator rivojlangan mamlakatlarda, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlarda,

jumladan, O'zbekiston Respublikasida yangi, adolatli demokratik jamiyat qurish bosh maqsad qilib belgilangach, ushbu masalani ilmiy o'rghanishga bo'lgan qiziqish yanada kuchaydi. Ushbu mavzu bilan bog'liq ayrim nazariy va amaliy muammolar o'zbek huquqshunos olimlaridan Sh.I.Jalilov, Z.Islomov, A.Saidov, K.Komilov, M.Suvonqulov, S.Sultonov, A.To'laganov, E.Xalilov, G. Malikova, G.Ismailova, Z.Reymova, tarixchi olimlardan G.Umarova R.T.Shamsuddinov, A.Isg'oqov lar siyosatshunos olimlardan R.Jumaev , M.Qirg'izboev, K.Yunusov, M.Yunusova T.Ortiqov sotsiolog olim A.Xolbekov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqorida nomlari qayd qilib o'tilgan olimlarning ilmiy ishlariiga yuqori baho bergan holda, shu narsani alohida ta'kidlash joizki, ular O'zbekistonda o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslarini o'rganganlar. Mazkur uslubiy qo'llanmada ushbu mavzuni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida o'tishning ustuvor yo'nalishlari o'z aksini topgan.

## MAVZU MATNI

### “Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish institutlarini demokratlashtirish”

#### **REJA:**

- 1.O’zbekistonda demokratik jamiyat qurishda mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining o’rni.
2. Mahalliy davlat hokimiyatining asoslari. Mamlakatimizda mahalliy o’zini-o’zi boshqarishning shakllari.
3. Mahalla – fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish organi sifatida.
4. O’zbekistonda demokratik tamoyillar asosidagi o’zini-o’zi boshqarish tizimining rivojlanishi va takomillashtirib borishi.
5. Kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish asosiy maqsadimiz.

Tayanch so’zlar: o’zini o’zi boshqarish, fuqarolar yig’ini, mahalla, mahalliy hokimiyat, hokim, deputat, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari, nomarkazlashtirish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari - joylardagi davlat boshqaruv idoralar bo’lib, ular mahalliy ahamiyatga molik hamma masalalarni o’z vakolatlari doirasida o’zlar hal etadilar, umumdavlat manfaatlarini shu hududda yashab turgan fuqarolarning manfaatlari bilan uyg’unlashtiradilar, yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo’g’ini sifatida yuqori davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta’minlaydilar. O’zbekiston mustaqillikka erishgach, uzoq tarixiy tajribaga, milliy an’analarga tayangan holda, ilg’or mamlakatlar tajribasidagi ijobjiy tomonlarni o’rganib, o’z davlat idoralarini tubdan qayta isloq qildi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimini yaratdi. Mahalliy hokimiyat tizimini shakllantirish sohasida bir qator qonun va rasmiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992 yil, 8 dek.), "Mahalliy davlat hokimiyati to’g’risida"gi qonun (1993 yil, 2 sentabr), "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlar to’g’risida"gi qonun (1994 yil, 5 may) kabilar mu-him o’rin egallaydi. O’zR Konstitutsiyasining 20-bobida “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati”ning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari o’z aksini topgan (99—104moddalar). Mazkur moddalarda Mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi, mavqeい, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo’ylgan. Konstitutsiya mahalliy vakillik organlarining 2 bo’g’inli tizimi (ya’ni, tuman, shahar xalq deputatlari kengashlari - quyi bo’g’in; viloyatlar va Toshkent shahri xalq deputatlari kengashlari -

yuqori bo'g'in)ni mustahkamladi va bu mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi Qonunda o'z ifodasini topdi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari: qonuniylikni, huquqiy tartibotni va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish; mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlar belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish; mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish; fuqarolik holati aktlarini qayd etishni ta'minlash; normativ hujjatlarni qabul qilish hamda O'zR Konstitutsiyasi va qonunlariga zid kelmaydigan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zR qonunlari, Prezident farmonlarini, davlat hokimiyati yuqori organlarining qarorlarini amalga oshiradi, xalq deputatlari quyi kengashlari faoliyatiga rahbarlik qiladi, respublika va mahalliy hokimiyatga molik masalalarни muhokama qilishda qatnashadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari 2 ga bo'linadi: mahalliy vakillik organlari va mahalliy ijroiya organlari. Mahalliy vakillik organlari o'z faoliyatini kollegiallik asosida olib boradi. Mahalliy kengash ishining asosiy tashkiliy-huquqiy shakli sessiya hisoblanadi. Mahalliy vakillik organlarining hamma bo'g'inxilarini saylov yo'li bilan tashkil qilinadi. Qonun vakillik organlariga har tomonlama bilimga, tajribaga ega, keng, mustaqil fikrlovchi shaxslarning saylanishini va bu organlar ishchan bo'lishini nazarda tutadi. Mahalliy ijroiya organlari - hokimiyatlarga viloyat, tuman va shahar hokimlari boshchilik qiladi va u yakkaboshchilik printsipli asosida ish olib boradi. Hokimiyatlar boshqarmalar, bo'limlar va bo'linmalardan iborat bo'lib, ularning tuzilishi, tashkil etilishi va faoliyati O'zRning Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan tegishli nizomlar bilan belgilanadi. Viloyatlar va Toshkent shahri ijroiya hokimiyati organlarining tuzilishi va shtatlari hokim tomonidan O'zR Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda, tegishli xalq deputatlari kengashi tasdiqlagan byudjet doirasida belgilanadi va o'zgartiriladi. Tuman, shahar ijroiya hokimiyati organlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi ijroiya hokimiyati organlari tuzilishi va shtatlari tarkibi Mahalliy davlat hokimiyati organlari to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadi. Xalq deputatlari kengashlari va hokim munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarga asosan hududdagi muhim masalalar, muammolarni hal qilishda maslahatlashish uchun hokimlar huzurida maslahat kengashi tuzildi. Lekin bunday maslahat kengashlari tuzilishi hokimning faoliyatidagi yakkaboshchilik prinsipiga putur yetkazmaydi. Ijroiya hokimiyati bo'linmalari rahbarlari davlat

boshqaruvining yuqori organlari bilan kelishilgan holda va hokimning taqdimiga binoan, tegishli xalq deputatlari kengashlari sessiyalarida lavozimiga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi. Mahalliy vakillik organlari va hokimlar qabul qiladigan hujjatlar konstitutsiya va qonunlarga zid bo'lmasligi lozim. Hokim tomonidan qabul qilingan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar sudga shikoyat qilishlari mumkin.

Fuqarolik jamiyatni institutlari tizimida o'zini o'zi boshqarish organlari (mahalla)ning o'mni beqiyosdir. Davlatimizning birinchi rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek, "...o'zini o'zi boshqarish organlari - bizning kelajagimiz. Fuqarolik jamiyatini qurmoqchi ekanmiz, uning asoslarini tashkil etuvchi poydevor mana shu organlar bo'ladi. Biz bugun ana shu asoslarni qurishni boshladik". Ko'pchilik mamlakatlardan farqli o'laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanib kelmoqda. Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xalqimizning urf-odatlari, an'analarini va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida maydonga chiqayotganligini yaqqol ko'rib turibmiz.

"Mahalla" atamasi arabcha bo'lib, "o'r-in-joy" degan ma'noni anglatgan. U turli mintaqalarda mahollot (joy), guzar, jamaa, elat, elod nomlarida atalib kelingan. Adabiyotlarda mahallalarning ko'p ming yillik tarixiga ega ekanligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Masalan, Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida Buxoroda bundan 1100 yil ilgari bir qancha Mahallalar bo'lganligini qayt etib o'tgan. Alisher Navoiy o'zining "Hayrat ul-abror" asarida mahallani "mahalla - shahar ichidagi shaharcha" dir, deb ta'riflaydi. Hirot shahri "yuz shaharcha"lardan, ya'ni mahallalardan tashkil topgan ekanligini aytib o'tadi . Mahallalar ayniqsa, Amir Temur davrida ravnaq topgan. Mahallalar fuqarolarning kasb-kori asosida shakllangan va shunga qarab nomlangan. Masalan, zargarlik, misgarlik, ko'nchilik, pichoqchilik, qoshiqchilik, temirchi, egarchi, taqachi singari turli nomlar bilan nomlangan. O'z navbatida, mahalla qadimdan mahalliy hokimiyatning o'ziga xos bir shakli, ko'rinishi tarzida faoliyat ko'rsatgan. Mahallani boshqarish jamoatchilik asosida olib borilib, o'zining yozilmagan ichki tartib-qoidalariga ega bo'lib, u hamma uchun birdek qonuniy xisoblangan. Mahalla kichik ma'muriy hudud bo'lishi bilan birga, turmush tarzi, qadryatlar, an'analar, urf-odatlar umumiyligi bilan bog'langan kishilar jamoasi birligidir. Tarixning turli bosqichlarida

davrlar, tuzumlar o'zgarishiga qarab, mahallaning vazifalari ham o'zgarib turgan. O'zbekistonda fuqarolar o'zini o'zi boshqaruvini amalga oshirishda mahalla o'rnak bo'ladi. Mahalla o'zbeklarning tarixan shakllangan jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish uchun yagona maqsad bilan yashab, faoliyat ko'rsatish makoniga aylangan. U o'zbek xalqining turmush tarzi, ruhiyati, ijtimoiy hayotining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi, milliy an'analarini, urf-odatlarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muqaddas maskan bo'lib kelgan. Mahalla insonlarning millati, yoshi, jinsi, dini, irqi, tili, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, ularni ezgulik yo'lida jipslashtiruvchi va birlashtiruvchi katta va muqaddas oila hisoblanadi. Mahalla sharqona an'analar, urf-odatlar va marosimlarini jamoada amalga oshirib, avloddan-avlodga yetkazib kelmoqda. Mahalla faollari an'anaviy, oilaviy to'ylar, bayramlar, motam marosimlarini o'tkazish bilan bog'liq tashkiliy ishlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'lishadi. Mahallada o'tayottan har bir tantana yoki marosim uchun mahalla ahlining katta-yu kichigi birday mas'uldir. Chunki mahallaning barcha a'zosi yagona, teng huquqli va mustahkam bitta oila hisoblanadi. Mahallada kelajak avlodimiz tarbiya topadi. Bu yerda o'sayotgan har bir yigit-qizning axloq-odobi uchun butun mahalla ahli mas'uldir. Shuning uchun ham "Bir bolaga yetti qo'shni ota-onas", "Bir bola tarbiyasi uchun yetti mahalla ota-onas" kabi naqllar bejiz paydo bo'limgan. Yoshlarning har bir xatti-harakati barchaning diqqat-markazida bo'ladi. Mahalladoshlarning har bir yosh taqdiriga javobgarligi, ularni nazorat qilishi – barkamol insonni tarbiyalab yetishtirishning negizidir. Mahalladan yurtga taniqli insonlar yetishib chiqsa, butun mahalla ahli, ularning avlod-ajdodlari g'ururlanadilar.

Mahalla tuzilmasi va funktsiyasi vaziyatga qarab o'zgarib turgan, ammo u o'zini o'zi boshqarish tamoyilini saqlab qolgan, o'z hududida istiqomat qiluvchi kishilar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni muvofiglashtirib turgan. Mustaqillik yillarda mahallalar jamiyatning moddiy-ma'naviy asoslarini yaratish tayanchiga aylanib, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-siyosiy masalalarni hal etib, fuqarolar yig'inida demokratiya tamoyillarini shakllantirish, inson omilini qadrlash makoni sifatida tiklanmoqda. Mahalla, umuman, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organalarining fuqarolik jamiyatidagi roli ularning muayyan hududdagi aholinini birlashtirishi, uni yagona jamoaga aylanishi va faoliyat ko'rsatishiga xizmat qilishidadir. Bugungi kundagi zamonaviy tadqiqotlarda munitsipal tuzilmaning aholisi – "hududiy ommaviy

jamoia”, “hududiy jamoa”, “mahalliy hamjamiyat” tushunchalari bilan belgilanadi. Hozirgi kunda har bir fuqarolar yig’inidagi shtat lavozimida fuqarolar yig’ini raisi, diniy ma’rifat va ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo’yicha maslahatchi, ma’sul kotib va “Mahalla posboni” jamoat tuzilmasi rahbari – jami 40 mingga yaqin kishi faoliyat ko’rsatmoqda. Undan tashqari, fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatida jamoatchilik asosida fuqarolar yig’ining obro’li va hurmatga sazovor a’zolari o’rtasidan saylangan maslahatchilar faoliyat yuritadi, ular faoliyatining asosiy yo’nalishlari bo’yicha saylangan komissiyalarga rahbarlik qiladi. Ularning soni 100 ming kishiga yaqin. O’zbekistonda o’zini o’zi boshqarish organlarini qo’lab quvvatlashda Respublika “Mahalla” xayriya jamoat fondining roli katta. Respublika “Mahalla” xayriya jamoat fondi 1992 yilda tashkil etilgan bo’lib, fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlarini mustahkamlashda, ularning qonunchilikda belgilangan huquq va vakolatlarini samarali tatbiq etishda, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi o’rnini yuksaltirishga ko’maklashadigan yetakchi jamoat tashkiloti hisoblanadi. Ushbu jamoat fondi fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo’yicha Respublika kengashi ishchi organi maqomiga ega. O’z navbatida, “Mahalla” xayriya jamoat fondining hududiy bo’linmalari maqomiga ko’ra, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo’yicha hududiy kengashlar ishchi organlari hisoblanadi.

Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari xodimlari faoliyati mamlakat aholisi tomonidan keng miqyosda qo’llab-quvvatlanishga va Hukumatning yuksak e’tirofiga sazovor bo’lmoqda. 2010-2013 yillar davomida fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlarining 150 nafarga yaqin xodimi turli davlat mukofotlariga sazovor bo’lgan. 2014 yilda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari 27 nafar xodimi davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. 2014 yil 21 dekabrda bo’lib o’tgan saylovlarda fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining 692 nafar xodimlari xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari deputatligiga, 29 nafari viloyat Kengashi deputatligiga va 3 nafari Oliy Majlis Senati a’zoligiga saylanganlar. Bu fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarida bugungi kunda hurmat va ehtiromga loyiq insonlar faoliyat yuritishaetganini ko’rsatadi.

Fuqarolar o’zini o’zi boshqarish organlarining mustaqilligi ularning mahalliy hokimiyat organlari bilan munosabatlarida aks etadi. O’zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish

organlari to'g'risida"gi Qonuning 3-moddasiga muvofiq, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni o'z manfaatlardan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda, hal qilish borasidagi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan kafolatlanadigan mustaqil faoliyatidir. Mazkur Qonun 8-moddasining ikkinchi qismida esa, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi va qonun bilan berilgan o'z vakolatlarini tegishli hudud doirasida amalga oshirishi mustahkamlangan.

"Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro munosabatlari belgilangan. Mazkur moddaga muvofiq, xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi tegishli hududda o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirishga ko'maklashishlari, o'zini o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yo'naltirib turishlari belgilangan. Ushbu Qonunning 1-moddasida esa, Xalq deputatlari Kengashi va hokim davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtaсидagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlashi belgilangan. Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari turli masalalar yuzasidan o'zaro munosabatlarga kirishadilar. Ushbu munosabatlar fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy boshqaruvdagi ishtirokini ta'minlash, shuningdek mahalliy hokimiyat organlarini o'zini o'zi boshqarishni yo'naltirishdan iboratligi ayon bo'ldi.

"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 7-moddasiga muvofiq, davlat organlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratadi, qonun hujjatlari bilan berilgan vakolatlarni amalga oshirishda ularga ko'maklashadi. Ushbu moddaga binoan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, xususan hukumat va parlament boshqa davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga aralashmasligini ta'minlaydilar. Bunday faoliyat qonunlar va boshqa qonun hujjatlarida, dasturlarda tegishli me'yorlarni hamda choralarini belgilash, ularning ijrosini ta'minlashdan iborat.

2013 yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kursini tashkil etish to'g'risida»gi qarori amaliy choralardan biri bo'ldi. Ushbu qarorga muvosiq, har bir hududda tashkil qilingan fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish, bu borada mavjud muammolarni hal etishga katta ko'mak bo'ldi. 2014 yil mobaynida ushbu o'quv kurslarida, jami o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlarining 35% ni tashkil etuvchi 13 ming 983 nafar xodimlar malaka oshirib, o'quv kurslarining sertifikatlarini qo'lga kiritishdi.

Ma'lumki, mustaqillikka erishilishi bilan O'zbekistonda mahalla institutiga mustahkam huquqiy poydevor yaratishning faol jarayoni boshlandi. Birinchi huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'ldi, uning 105-moddasida quyidagicha belgilab qo'yilgan: "Shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek ular tarkibidagi mahallalarda hamda shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular ikki yarim yil muddatga raisni (oqsoqloni) va uning maslahatchilarini saylaydi". Konstitutsiyaning ushbu qoidasi mahallaning huquqiy asoslarini yanada rivojlantirish uchun dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib, 1993 yil 2 sentyabr kuni "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun ilk marta qonunchilik darajasida mahalla faoliyatini tartibga soldi, ya'ni uning huquqiy maqomini belgilab berdi. Fuqarolarning moddiy mustaqilligi va siyosiy-huquqiy ongi oshishiga sabab bo'layotgan demokratik islohotlar chuqurlashib, bozor munosabatlari rivojlanib borgani sari mahalla institutining huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurati tug'ildi. Natijada 1999 yil 14 aprel kuni "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Unda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish huquqi bevosita mustahkamlab qo'yildi, mahalla faoliyatining asosiy tamoyillari, uning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga davlat kafolati belgilab berildi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakolatlari kengaytirildi.

2004 yil 29 aprel kuni «Fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqli) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi Qonun mahalla faoliyatini demokratlashtirish yo'lidagi ulkan qadam bo'ldi. Ushbu qonunda, birinchidan, fuqarolar yig'ini organlariga saylovning demokratik tamoyillari belgilab berildi va mahalla organlariga saylov tizimi barpo

etildi, ikkinchidan, saylov jarayonining barcha bosqichlari batafsil tartibga solindi, uchinchidan, qonun darajasida mustahkam huquqiy kafolat yaratildi.

Mahalla o'z faoliyatini moliyalashtirish bo'yicha ham davlat ko'magini ola boshladi. Shunday qilib, rais, mas'ul kotib, "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasi rahbari va fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisidan iborat to'rt nafar mas'ul shaxs ishi, shuningdek, mahallaning qo'shimcha xarajatlari davlat hokimiyatining mahalliy organlari byudjetidan moliyalashtirilmokda.

Darhaqiqat, olib borilgan islohotlar natijasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyat qamrovi kengaydi. Buni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida fuqarolar yig'in faoliyatining asosiy yo'naliishlari bo'yicha komissiyalar misolidan ham ko'rish mumkin. 2013 yilda yangi tahrirda qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, fuqarolar yig'inlaridagi asosiy yo'naliishlar bo'yicha komissiyalar ro'yxati quyidagilardir:

- yarashtirish komissiyasi;
- ma'rifat va ma'naviyat masalalari bo'yicha komissiya;
- ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha komissiya;
- xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha komissiya;
- voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiya;
- tadbirdorlik faoliyati va oilaviy biznesni rivojlantirish masalari bo'yicha komissiya;
- ekologiya va tabiatni muhofaza qilish, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiya;
- jamoatchilik nazorati va iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiya.

Tegishli hududdagi muammolarning dolzarbligiga qarab, fuqarolar yig'in tomonidan fuqarolar yig'in faoliyatining asosiy yo'naliishlari bo'yicha boshqa komissiyalari ham tuzilishi mumkin. Komissiyalar turli sohalardan iborat tarkibda fuqarolar yig'in faoliyatiga ko'maklashadi. Ular boshqa funktsiyalar bilan birga, turli tashkilotlar ustidan jamoatchilik nazoratini ham olib boradi. Xususan, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining fuqarolar yig'inlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitish amali tining tobora takomillashib borishi, o'z navbatida, hududlarda qonun

hujjatlarining ustuvorligini ta'minlash, aholi, ayniqsa, yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish, eng muhimi, fuqarolarning turmush farovonligini oshirish tizimini yanada takomillashtirishda alohida o'r'in tutmoqda. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2012 yil 9 iyuldag'i "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimlari mehnatini rag'batlanirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini qo'llab-quvvatlashda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Namunali, fuqarolik jamiyatiga xos loyihalarni amalga oshirayotgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash ularga zarur yordam ko'rsatish masalaari mamlakatimizda muvaffaqqiyatli amalga oshirilayotgan bir qator ijtimoiy dasturlarda o'z aksini topganligini alohida qayd etishlozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013 yil 30 sentyabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvoqiflashtirish bo'yicha respublika kengashini tashkil etish to'g'risida", 2013 yil 7 oktyabrda "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlar bilan sohaga oid 15 ga yaqin nizomlar tasdiqlangan bo'lib, ular mahallalarda ma'naviy muhit barqarorligini, millatlararo do'stlik va hamjihatlikni mustahkamlash, yoshlarni ona-Vatanga va milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalash, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini yanada oshirishga ko'maklashish, fuqarolar yig'inlaridagi jamoatchilik tuzilmalari faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilganligi bilan e'tiborlidir. Shu jumladan, fuqarolar yig'ini faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha 8 ta komissiyasi faoliyatiga oid tasdiqlangan namunaviy Nizomlarning amaliyotga ttabiq etilishi mahallalar ishiga keng jamoatchilikni jalb etishga katta turki beradi.

Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish lozim. Bunda eng muhimi, aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarining huquq va mavqelarini oshirish darkor. "Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyatni sari" degan siyosiy qurilish dasturining moxiyati ana shunda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shunday

yondashuv fuqarolarning o'zlariga o'z hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va tashkil etishda keng ishtirok etish uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa, fuqarolik jamiyati tamoyillariga to'la mos keladi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish kontseptsiyasи nafaqat mamlakatimizdagi islohotlar uchun ilmiy-amaliy asos, balki umuman, davlatchilik taraqqiyotidagi o'ziga xos ta'lilotga aylandi deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu kontseptsiyaning o'zbek xalqi madaniyati va umum e'tirof etilgan demokratik qadriyatlar uyg'unligida shakllanganligi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyatiga xizmat qilmoqda. Zero, har qanday yangilanish, hattoki liberallashtirish ham xalqning manfaatlariga xizmat qilishi lozimligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir.

### GLOSSARIY

**Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining hududiy asosi** - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini tuzish, birlashtirish, tugatish hamda ularning chegaralarining o'rnatish va o'zgartirish tartib-qoidalarini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishi** -O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlari bilan kafolatlanadigan ularning o'z manfaatlaridan, rivojlanishning tarixiy xususiyatlaridan, shuningdek milliy va ma'naviy qadriyatlardan, mahalliy urf-odatlar va an'analardan kelib chiqqan holda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish borasidagi mustaqil faoliyatidir.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarishning tashkiliy asosi** - o'zini o'zi boshqarishhuquqining instituti sifatida o'zini o'zi boshqarish organlarining tuzilishi, faoliyat tartibi, shakli va printsiplarini, faoliyat doirasini belgilab beruvchi huquqiy normalarning mushtarak tizimidir.

**Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining moliyaviy asosi** - fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining o'z mablag'laridan, ushbu organlarga xalq deputatlari tuman va shahar kengashlari belgilangan tartibda ajratgan byudjet mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtieriy hayr-ehsonlaridan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa mablag'lardan tashkil topadi.

**Fuqarolik jamiyati** - fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida tegishli fuqarolik institutlari orqali faol ishtirok etishi ta'minlangan ijtimoiy makondir.

**Fuqarolik jamiyati institutlari** – fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishiga xizmat qiladigan nodavlat, notijorat tashkilotlari, jamiyat birlashmalari, oila, mahalla, ijtimoiy harakatlar va boshqa tuzilmalar majmuidir.

**Fuqarolik mas'uliyati** – qonun ustivorligini tan olish va har bir shaxsnинг ijtimoiy haётni takomillashtirish jaraёнida ishtirok etish vazifasini teran his qilish. **Madaniy siyosat** – Jamiyatning ma'naviy hayotidagi nazariy va amaliy faoliyat.

**Madaniyat** - (Arabcha-madinalik, shaharlik, ta'lrim-tarbiya ko'rganlik). Mafkura – Arabcha so'z bo'lib, jamiyatdagi muayyan, siyosiy huquqiy, aqloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy, qarashlar, fikrlar g'oyalar majmui. **Ma'naviy qadriyatlar** – Siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, ahloqiy qadriyatlardir.

**Ma'naviyat** – Kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy ahloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

**Ma'rifat** – ta'lrim-tarbiya iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat.

**Millat** – kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiyligini madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

**Milliy qadriyatlar** – Ayrim xalq, millatlar va elatlarning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yig'indisi.

**Milliy manfaat** – Millatga milliy davlatga, moddiy, ma'naviy ruhiy va jismoniy foyda keltiruvchi omillar.

**Urf-odat** – Kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan hulq-atvor qoidalari va ko'nikmalari.

**Umuminsoniy qadriyatlar** – o'zining mazmuni, mohiyati keng miqyosda amal qilishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, elatlari, millatlarning o'tmishdag'i, hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikdag'i qadriyatlar.

**Sharqona demokratiya** – Sharq, asosan muslimmon mamlakatlariga xos bo'lib, milliy bosiqlik, andisha, yoshi ulug'larga hurmat, o'zaro maslahat, qar qanday keskin masalada ham tomonlarning kelishuvlariga asoslanadigan faoliyatdir

**Tinch-totuv yashash** – Davlatlar o’rtasidagi munosabatlar tamoyili bo’lib, bu tamoyil munozarali masalalarni hal qilish vositasida urushdan voz kechishni nazarda tutadi.

**Siyosiy madaniyatning yuqori darajasiga erishgan shaxs** – Shaxsnинг siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlarda faol ishtirok qilishi, siyosiy ishlarni chuqur mulohaza va tadbirkorlik, tashabbuskorlik asosida olib borishi, davlat siyosatiga bosiqlik bilan xolisona baho berish qobiliyatiga ega bo’lgan shaxs. **Siyosiy munosabat** - siyosatning ob’ekt va sub’ekt hamda sub’ektlar o’rtasidagi munosabatlar.

**Siyosiy ong** - shaxsnинг siyosiy voqeа-hodisalarining mohiyatini anglab etish mohiyatidir.

**Siyosat** – Davlat, davlat hokimiyati organlari va davlat boshqarmalarining mamlakat ijtimoiy tuzumi va iqtisodiy strukturasini aks ettiruvchi faoliyati.

### *Fan yuzasidan keyslar to’plami, amaliy topshiriqlar, Ishlanmalar*

11-mavzu	Mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarish institutlarining demokratiyalashuvi.
----------	---

#### **1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli**

